

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA ANATOMIYA FANINI O'RGANISHNINING NAZARIYASI VA METODIKASI.

Boboyeva Z.A

FarDU katta o'qituvchi

Soxibov R.J.

FarDU o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqola uzluksiz ta'lrim tizimida tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda plastik anatomiya fanining ahamiyati va inson qomatini, hayvon tasvirlarini haqqoniy tasvirlashda, ularni jonli tarzda shakllantirishda plastik anatomiya borasidagi ma'lumotlarni mukammal bilishlari va o'quv tarbiya jarayonida ulardan foydalanish masalalariga bag'ishlangan.

Tayanch so'zlar: tasviriy san'at, plastik anatomiya, rassomchilik san'ati, funksional anatomiya, proyeksiyalari, xirurgik anatomiya, topografik anatomiya, jonli tarzda shakllantirish.

METHODOLOGY AND THEORY OF STUDY OF THE SUBJECT ANATOMY IN CONTINUING EDUCATION.

ABSTRACT

The article describes the importance of the subject of plastic anatomy, as well as images of human figures and animals image in the way of training teachers of fine arts in continuing education and the use of these knowledge in the classroom.

Key words: Visual arts, plastic anatomy, functional anatomy, projection, surgical anatomy, topographic anatomy and the art of artistic reproduction.

МЕТОДИКА И ТЕОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ ПРЕДМЕТА АНАТОМИЯ В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

В статье описывается важность предмета пластической анатомии, и также изображении человеческой фигуры и образа животных в профессиональной подготовки учителей изобразительного искусства в системе непрерывного образования и использование этих знаний на занятиях.

Ключевые слова: изобразительное искусство, пластическая анатомия, функциональная анатомия, проекция, хирургическая анатомия, монографическая анатомия и искусство художественного воспроизведения.

Uzluksiz ta’lim tizimida tasviriy san’atdan bo’lajak kadrlarni tayyorlash mazkur sohaga oid tasviriy san’at siklidagi barcha fanlar qatori plastik anatomiyaga ham ko’p jihatdan bog’liq. Ma’lumki, anatomiya fani umumta’lim o’rta maktab fani sifatida o’quvchilarni tayyorlashda o’rni behisob bo’lib, odam a’zolarining shakli, tashqi ko’rinishi, tuzilishini ularning bajaradigan vazifalariga bog’langan holda o’rganadi va funksional anatomiya deb ataladi. Murakkab tuzilgan odam anatomiyasini o’rganishni osonlashtirish maqsadida uni alohida-alohida tizimlarga ajratish, a’zolarini izchillik bilan o’rganish, ularning joylashish tartibi, proyeksiyalari va o’zaro munosabatiga, ham katta ahamiyat beriladi. Anatomianing ana shunday bo’limi xirurgik anatomiya yoki topografik anatomiya deb ataladi.

Uzluksiz ta’lim tizimining o’rta maxsus kasb-hunar ta’lim bo’g’inida bo’lajak kichik mutaxassislarni tayyorlovchi bosqichida (rassom va haykaltaroshlar) ham odam tanasi ayrim qismlarining o’zaro munosabatlari, ularning tashqi tuzilishlari o’rganiladi. Bu fan “Rassomchilik anatomiysi” yoki “Plastik anatomiya” nomi bilan yuritiladi.

Oliy pedagogik ta’limda bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchisining umumkasbiy fanlardan olgan nazariy bilimlari va amaliy ko’nikmalarini (qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya va b.) plastik anatomiyasiz tasavvur qilish qiyin. Bo’lajak malakali rassom-pedagoglar qalamtasvir, rangtasvir, grafika va haykaltaroshlik san’atida inson qomatini va hayvonlar tasvirlarini haqqoniy tasvirlay olishi, ularni jonli tarzda shakllantirishlarida plastik anatomiya borasidagi ma’lumotlarni mukammal bilishlari muhim hisoblanadi. Bu borada mashxur rassom va nazariyotchilar ko’plab fikrlar bayon etganlar. Jumladan, P.P. Chistyakov his qilish, bilish va ko’rganlarni haqqoniy tasvirlay olish benihoya katta san’atdir deb aytadi. Rassom –pedagog odam yoki hayvon qiyofasini tasvirlar ekan, uning tuzilishini, plastik xususiyati va anatomiyasini mukammal tarzda bilmog’i kerak. Bo’lajak mutaxassis inson gavdasini tasvirlashi uchun suyaklarning tuzilishi, birikishini tasavvur etishi, paylar, muskullarning birlashishiga e’tibor berilishini ta’kidlaydi. Plastik anatomiyada tana a’zolari nisbatlarini o’rganishning ikki yo’nalishi ko’rsatilgan bo’lib, birinchidan, inson tanasi tuzilishini estetik idrok etish va uni anatomiya nuqtai nazardan baholash, ikkinchidan, amaliyotda qo’llash, y’ani tasviriy faoliyatda tasvirlash qulay bo’lishi uchun barcha o’lcham va nisbatlarni bir tizimga tushirishdan iboratdir. Chizilayotgan shaklning

qanchalik haqqoniy chiqishi odam tanasi nisbatlarining o'rganilganlik darajasi plastik anatomiyaning maxsus qonun-qoidalariga, ular yordamida tananig har bir alohida qismini bir tizimga keltirib tasvirlashga bog'liq. Ushbu qonunlar asosida inson tanasini tasvirlash shaklning mukammal bo'lismeni taqazo etadi.

Mazkur sohada yaratilgan plastik anatomiya darslik o'quv qo'llanmalarda odam va hayvonlarning anatomik tuzlishi: suyaklar, bo'g'imlar, boylamlar, muskullar va ichki a'zolar to'g'risidagi ma'lumotlar to'la yoritilgan, lekin inson tanasining xilma-xil harakatlari jarayonida (o'tirganda, turganida, yurganida) skelet- muskul qismlarining fazoda o'zaro qanday munosabatda bo'lishi, muskullarning qisqarishi natijasida odam tanasidagi shakllarning o'zgarishi plastik anatomiyanı o'rganishga undaydi.

Plastik anatomiya odam tanasining umumiyligi anatomik obzarida tayanch-harakat sistemasidagi suyak va muskullarning tuzilishi, shakli, ularning birikishi, bo'gim turlari va ulardagi harakatlarining ma'lumotlaridan tashqari, odamning dinamik va statik holati, tashqi fazo, bo'shliq maydonida tana og'irligi muvozanatini saqlash, hamda tananing turli qismlarining nisbatlarini o'rgatadi. Inson kalla suyagining tuzilishi, shakli va undagi muskullar, ayniqsa, mimika muskullar guruhi, hamda yuz qismidagi organlar (burun, ko'z quloq, og'iz) tuzilishinig o'ziga xosligi inson qiyofasini shakllantirishda plastik anatomiyaning tahlili alohida o'rinni tutishi bayon etiladi.

O'rta maxsus, kasb hunar kollejlari va oliy ta'limning tasviriy san'at kursida plastik anatomiyanidan olingen bilimlarga tayangan holda, bo'lajak rassom – pedagog inson qomatining rasmini chizishda modeldan nusxa ko'chirmsandan tasvirni jonli va jozibali qilib yaratishga erishadi. Bunda tananing tashqi va ichki tuzilishini va harakatlanish mexanizmlarini tasavvur qilish kerak. Shunda naturadan ko'r-ko'rona nusxa ko'chirmay naturaga ijodiy yondashib tasvirlash imkoniga ega bo'ladi. Eng asosiysi yangi obraz, kompozitsiya yaratish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa uzluksiz ta'lim (o'rta, o'rta maxsus, oliy ta'lim) tizimining o'quv tarbiya jarayonida quyidagi metodik jihatlarga asoslanishni nazarda tutadi:

- Inson tana a'zolarining shakli, tashqi ko'rinishi, tuzilishi, ularning bajaradigan vazifalari;
- murakkab tuzligan odam anatomiyasini o'rganishni osonlashtirish maqsadida tanani alohida-alohida tizimlarga ajratish, a'zolarni izchillik bilan o'rganish;
- a'zolarning joylashish tartibi, o'zaro munosabatlariga ahamiyat berish;

- odam skeletining tuzilishi, suyaklarning birikishini (bo'g'implarning shakllari, boylamlar, tog'ay va choklar ulardag'i harakat) o'rganish;
- gavdaning ayrim qismidagi shakllarning muskullar tuzilishi va odam harakatiga asosan o'zgarishi, muskullar guruhining harakati;
- tananing turli qismlaridagi muskullar va suyaklar tizimini o'rganish hamda inson qiyofasi ishtirokida tasviriy san'at kompozitsiyasini yaratish.

Yuqoridagi misollarda ko'rindiki, uzlucksiz ta'lif tizimida anatomiya va plastik anatomiyaning yuqori darajada izchillik va uzviylikda o'qitilishi bo'lajak tasviriy san'at mutaxassilarini kasbiy jihatdan tayyorlashda o'zining ijobiy natijalarini beradi.

REFERENCES

1. F.Mannopov. Plastik anatomiya.O'quv qo'llanma. 2018 yil
2. N.Berdiyev, E.Jobborov, I.Komilov. Plastik anatomiya. 2014 y.
3. M.S.Tolipov. Plastik anatomiya.M.C.Толипов. Пластик анатомия. Т. "Ilm Ziyo". 2013 y.
4. A'Zamjonov, A. A. Z. (2022). UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHGA INNOVATSION YONDASHUV YO'LLARI MAVZUSI BO'YICHA AMALIY ISHLANMA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 56-60.
5. A'zamjonov, A., & Hamdamov, K. H. (2022). TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARI MAZMUNINING DAVLAT TA'LIM STANDARTLARI BILAN BOG'LIQLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 71-77.
6. Yunusaliyev, M. T. (2022). DEKORATIV KOMPOZITSIYALARDA KONTRAST VA NYUANS'LARNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 5-8.
7. Barchinoy, K., Sevarakhon, S., & Mukhammadkodir, Y. (2021). EFFECTIVE METHODS OF TEACHING FINE ARTS AND DRAWING AT SCHOOL.
8. Qurbonova, B., & Yuldashev, I. (2022). MOVAROUNNAHRDAGI MADANIY HAYOTDA TASVIRIY SAN'AT TURLARIGA BO 'LGAN E'TIBOR. *Research Focus*, 1(2), 248-253.
9. Mmirjonovich, M. N., Jumadillayevich, S. R., & Anvarovich, M. A. (2021). The Role Of Historical Monuments In The Development Of Central Asian Architecture. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(02), 1-5.

-
10. Zulfiya, B., Rakhmonali, S., & Murodjon, K. (2021). A BRIEF HISTORY OF THE DEVELOPMENT AND TEACHING OF DRAWING SCIENCE IN UZBEKISTAN.
 11. Zulfiya, B., & Raxmonali, S. (2022). SAN'ATNING IJTIMOIY HAYOTNING MURAKKAB MUNOSABATLARI BILAN ALOQADORLIGI. *Research Focus*, 1(2), 296-300.
 12. Курбанова, Б. М., Юнусалиев, М., & Арзиева, Н. (2022). ОСОБЕННОСТИ ТЕХНИКИ: АКВАРЕЛЬ, МАСЛО И ГУАШЬ. *Research Focus*, 1(2), 319-325.
 13. Курбонова, Б., Ахмедова, Н., & Юлдашев, И. (2022). РАНГТАСВИР ТЕХНИКАСИДАН ФОЙДАЛАНИШ УСУЛЛАРИ. *Research Focus*, 1(2), 231-237.
 14. Boboyeva, Z. A., & Mo'Minova, D. B. Q. (2022). TALABALARNING KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 221-233.
 15. Mirzahamdamovna, K. B., Erkinovna, A. N., & Jumadillaevich, S. R. (2021). Use of Innovative Educational Technologies in Fine ARTS Classes of Higher Education Institutions. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(4), 25-27.
 16. O'Rinov, M. X. O. G. (2022). CHIZMACHILIK FANI DARSLARIDA UYG'UNLASHGAN TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 167-173.
 17. O'Rinov, M. X. O. G. (2022). TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING CHIZMACHILIK FANIDAGI O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 110-114.
 18. Sadikovna, S. G., Kurbonova, B., Akhmedova, N., & Sulaymanova, S. (2020). FUNDAMENTALS OF PROFESSIONALISM DEVELOPMENT ON THE EXAMPLE OF PRACTICAL EXERCISES ON FORMING THE SKILLS AND SKILLS OF FUTURE TEACHERS. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(6), 8894-8903.
 19. Бобоева, З. (2022). ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАСВИРИЙ САНЪАТНИНГ ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 51-55.
 20. Barchinoy, K., Sevarakhon, S., & Mukhammadkodir, Y. (2021). EFFECTIVE METHODS OF TEACHING FINE ARTS AND DRAWING AT SCHOOL

-
21. Ахмедова, Н. Э. (2022). МҮЙЖАЗ САНЬАТНИНГ БЕТАКРОР НАФОСАТ ОЛАМИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 125-130.
22. Ахмедова, Н. Э. (2022). БУГУНГИ ЁШ АВЛОДНИ АХЛОҚИЙ, КОГНИТИВ ВА ЭСТЕТИК ТАРБИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА КИТОБОТ САНЬАТИНИНГ ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 204-208.
23. Zulfiya, B., & Raxmonali, S. (2022). SAN'ATNING IJTIMOIY HAYOTNING MURAKKAB MUNOSABATLARI BILAN ALOQADORLIGI. *Research Focus*, 1(2), 296-300.
24. Сулайманова, С., Омонов, Д., & Аъзамжонов, А. (2022). Алишер Навоий асарларидан бадиий олий таълим муассасаларида тасвирий санъатни ўқитиш жараёнида фойдаланишнинг зарурияти. *Research Focus*, 1(2), 272-277.
25. Sulaymanova, S. B. Q. (2022). BADIY OLIY TA'LIM MUASSASALARDA TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHGA BO 'LGAN EHTIYOJNING OSHISHI VA UNING BUGUNGI HOLATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 89-96.